



Namangan viloyatining sanoat ishlab chiqarishi (2020- yil yanvar-sentabr)



Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2020- yilning yanvar-sentabr oylarida viloyat korxonalarini tomonidan 7 410,3 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2019- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishning fizik hajm indeksi* 110,4 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarish tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi (83,6 %) ni tashkil etdi.



Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish



Jami sanoat ishlab chiqarish fizik hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish sanoatining – 13,4 % ga, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatining - 5,9 % ga hamda elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning - 3,8 martaga o'sishi kuzatildi.

Shuningdek, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatining -6,9 % ga pasayishi kuzatildi.

*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.



Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatining jami sanoat mahsulotlari hajmidagi ulushi





Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2020- yilning yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 39,8 mlrd. soʻmni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,5 % ini tashkil etdi.



Ishlab chiqaradigan sanoat


2020- yilning yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 6188,8 mlrd. soʻmni yoki jami sanoat mahsulotlarining 83,6 % ini tashkil etdi.





**Ishlab chiqarishning texnologik tarkibi
bo'yicha ishlab chiqaradigan sanoat tarkibi, % da**

O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 2,8 % ni (2019- yilning yanvar-sentabr oylarida - 3,9 %), o'rta-yuqori texnologiyali - 5,3 % (6,5 %), o'rta-quyi texnologiyali – 11,9 % (11,7 %) va quyi texnologiyalisi - 80,0 % (77,9 %) ni tashkil etdi.



Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi - 38,3 % (2019- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 95,8 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi - 24,4 % (2019- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 101,9 %), elektr uskunalari ishlab chiqarish sohasining ulushi - 2,8 % (2019-yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi - 103,4 %), metallurgiya sanoatining ulushi - 0,5 % (2019- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 42,9 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi - 1,9 % (2019- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 82,7 %) ni tashkil etdi.



Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibi

Tarmoqlar nomi	Mahsulot hajmi, mlrd.so'm	Jamiga nisbatan ulushi, foizda
Ishlab chiqaradigan sanoat	6 188,8	100,0
Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish	1530,6	24,7
Ichimliklar ishlab chiqarish	274,0	4,4
Tamaki mahsulotlari ishlab chiqarish	0,0	0,0
To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish	1729,8	28,0
Kiyim ishlab chiqarish	1018,2	16,5
Teri va unga tegishli mahsulotlar ishlab chiqarish	87,9	1,4
Yog'och va po'kak buyumlar (mebeldan tashqari), pohl va to'qish uchun materiallardan buyumlar ishlab chiqarish	19,4	0,3
Qog'oz va qog'oz mahsulotlari ishlab chiqarish	34,0	0,5
Yozilgan materiallarni nashr qilish va aks ettirish	9,3	0,2
Koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish	6,9	0,1
Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish	46,9	0,8
Asosiy farmatsevtika mahsulotlari va preparatlari ishlab chiqarish	164,3	2,7
Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish	94,9	1,5
Boshqa no metall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish	363,8	5,9
Metallurgiya sanoati	42,9	0,7
Mashina va uskunalardna tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish	217,0	3,5
Kompyuterlar, elektron va optik mahsulotlar ishlab chiqarish	6,9	0,1
Elektr uskunalari ishlab chiqarish	210,9	3,4
Boshqa toifalarga kiritilmagan mashina va uskunalari ishlab chiqarish	45,9	0,7
Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar ishlab chiqarish	12,2	0,2
Boshqa transport uchkunlari ishlab chiqarish	12,4	0,2
Mebel ishlab chiqarish	104,7	1,7
Boshqa tayyor buyumlar ishlab chiqarish	145,9	2,4
Mashina va uskunalarni ta'mirlash va o'rnatish	10,1	0,2



Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi mahsulotlarning o'sish sur'ati



2020- yilning yanvar-sentabr oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 24,4 ming tonna paxta tolasi (2019- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan 56,8 % ga o'sgan), 96,8 ming tonna un (10,6 %), 11,2 ming tonna o'simlik yog'i (tozalangan) (45,2 %) mahsulotlari ishlab chiqarilib, yuqori o'sish sur'atlari kuzatildi.



Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish


Sanoat mahsulotlari	2019- yil yanvar-sentabr	2020- yil yanvar-sentabr	Farqi +/-
Paxta tolasi, ming tonna	15,6	24,4	8,8
Aroq – ming litr 100 % spirt	286,8	249,2	-37,6
Konyak spirti – ming litr 100 % spirt	29,2	15,1	-14,1
Vino, ming litr	947,0	441,6	-505,4
Un, ming tonna	87,5	96,8	9,3
O'simlik yog'i (tozalangan), ming tonna	7,7	11,2	3,5




**Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash
va havoni konditsiyalash**



2019- yil,
% da



2020- yil,
% da



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 1114,7 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining (15,0 % ini) tashkil etdi.

2020- yilning yanvar-sentabr oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalash o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 3,8 martaga oshganligi kuzatildi.





**Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni
konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari
tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish**

Sanoat mahsulotlari	2019- yil yanvar-sentabr	2020- yil yanvar-sentabr	Farqi +/-
Elektroenergiya, <i>mln.kVt/s</i>	9,2	3661,8	3652,6
Issiqlik energiyasi, <i>ming gkal</i>	53,7	61,2	7,5



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 67,0 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,9 % ini) tashkil etdi.



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2019- yil yanvar-sentabr	2020- yil yanvar-sentabr	Farqi +/-
Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar, mlrd.so'm	24,6	35,0	10,5
Oqava suvlarni shlami, mlrd.so'm	2,9	3,7	0,8
Shahar xo'jaligining qayta ishlanishga yaroqli havfsiz chiqindilarini yig'ish bo'yicha xizmatlar, mlrd. so'm	15,3	17,4	2,1
To'qimachilik chiqindilari, t		3,0	3,0
Xavfsiz metall chiqindilari, ming.t	2,3	-	-2,3


O'tgan yilning mos davriga nisbatan suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar 42,2 % ga, oqava suvlarni

shlami 27,6 % ga hamda shahar xo'jaligining qayta ishlanishga yaroqli havfsiz chiqindilarini yig'ish bo'yicha xizmatlar 13,7 % ga oshganligi kuzatildi.



Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 4 201,2 mlrd.so'mni tashkil etdi va 2019- yilning mos davriga nisbatan 6,2 % ga o'sgan holda, uning jami sanoatdagi ulushi 56,7 % ni tashkil etdi.




2019- yilning mos davriga nisbatan solishtirganda 2020- yilning yanvar-sentabr oylarida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida nooziq-ovqat mahsulotlarning ulushi 64,6 % dan 63,4 % gacha kamayganligi qayd etildi.

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida vino va aroq mahsulotlari va pivo 0,6 % (2019- yil yanvar-sentabr oylarida 1,0 %) ni tashkil etdi.

Hududlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Namangan shahriga to'g'ri kelib, 43,5 % ni, shuningdek, Namangan tumani 10,8 % ni, Mingbuloq tumani 7,2 % ni, Uchqo'rg'on tumani 6,6 % ni, To'raqo'rg'on tumani 5,8 % ni hamda Kosonsoy tumani ham 5,8 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida viloyat o'sish sur'ati (106,2 %) darajasidan yuqori ko'rsatkich Norin (124,0 %), Uchqo'rg'on (113,8 %), Chortoq (116,1 %), Pop (110,6 %),

To'raqo'rg'on (108,1 %), Kosonsoy (106,6 %), Mingbuloq (6,0 m) tumanlarida qayd etildi.



Shahar va tumanlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati
(2020- yilning yanvar-sentabr oylarida)

	Mrd. so'm	Jamiga nisbatan ulushi, % da	O'sish sur'ati, % da
Viloyat jami	4 201,2	100,0	106,2
Namangan sh.	1829,5	43,5	100,2
<i>tumanlar:</i>			
Mingbuloq	300,8	7,2	6,0 m
Kosonsoy	243,5	5,8	106,6
Namangan t	453,7	10,8	92,0
Norin	75,7	1,8	124,0
Pop	205,1	4,9	110,6
To'raqo'rg'on	244,7	5,8	108,1
Uychi	178,5	4,2	100,1
Uchqo'rg'on	275,5	6,6	113,8
Chortoq	103,9	2,5	116,1
Chust	173	4,1	101,2
Yangiqo'rg'on	117,3	2,8	104,1

Hududlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Namangan shahriga to'g'ri kelib, 48,3 % ni, shuningdek, Uchqo'rg'on tumani 12,1 % ni, Pop tumani esa 8,9 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida eng yuqori ko'rsatkich Chortoq tumani (140,6 %), Kosonsoy tumani (146,8 %) hamda Uychi tumanida (133,7 %) qayd etildi.



**Shahar va tumanlar bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlari ishlab
chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati**
(2020- yilning yanvar-sentabr oylarida)

	Mrd. so'm	Jamiga nisbatan ulushi, % da	O'sish sur'ati, % da
Viloyat jami	1 537,8	100,0	110,0
Namangan sh.	735,9	47,9	106,2
<i>tumanlar:</i>			
Mingbuloq	18,7	1,2	122,4
Kosonsoy	39,5	2,6	146,8
Namangan t	125,9	8,2	95,3
Norin	35,5	2,3	119,7
Pop	136,2	8,9	118,3
To'raqo'rg'on	48,1	3,1	67,7
Uychi	67,8	4,4	133,7
Uchqo'rg'on	185,2	12,0	127,2
Chortoq	52,8	3,4	140,6
Chust	47,4	3,1	124,9
Yangiqo'rg'on	44,8	2,9	102,8

Hududlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Namangan shahriga to'g'ri kelib, 41,1 % ni, shuningdek, Namangan tumani 12,3 % ni, Mingbuloq tumani 10,6 % ni hamda Kosonsoy tumani 7,7 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida yuqori ko'rsatkich Mingbuloq (8,0 marta), Norin (128,1 %), To'raqo'rg'on (126,4 %) hamda Yangiqo'rg'on (104,9 %) tumanlarida qayd etildi.



**Shahar va tumanlar bo'yicha nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab
chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati**
(2020- yilning yanvar-sentabr oylarida)

	Mrld. so'm	Jamiga nisbatan ulushi, % da	O'sish sur'ati, % da
Viloyat jami	2663,4	100	104,2
Namangan sh.	1093,6	41,1	96,5
<i>tumanlar:</i>			
Mingbuloq	282,0	10,6	802,1
Kosonsoy	204,0	7,7	101,3
Namangan t	327,8	12,3	90,8
Norin	40,3	1,5	128,1
Pop	68,9	2,6	98,1
To'raqo'rg'on	196,8	7,4	126,4
Uychi	110,6	4,2	85,8
Uchqo'rg'on	90,3	3,4	93,6
Chortoq	51,1	1,9	98,4
Chust	125,6	4,6	94,4
Yangiqo'rg'on	72,5	2,7	104,9



**Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar
tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish**

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 1830,7 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.

Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarining umumiy ishlab chiqarishdagi tutgan ulushi 24,7 % ni tashkil etdi.




**Shahar va tumanlar bo'yicha
sanoat ishlab chiqarish hajmlari**

	2020- yil yanvar-sentabr mlrd. so'm	Fizik hajm indeksi, % da
Viloyat jami	7 410,3	110,4
Namangan sh.	2834,9	96,4
<i>tumanlar:</i>		
Mingbuloq	396,2	110,9
Kosonsoy	255,6	101,0
Namangan t	609,9	103,8
Norin	254,3	138,7
Pop	340,1	104,2
To'raqo'rg'on	1080,3	105,9
Uychi	439,4	89,6
Uchqo'rg'on	629,5	118,5
Chortoq	120,9	107,6
Chust	323,6	107,9
Yangiqo'rg'on	125,6	108,0



**Shahar va tumanlar kesimida ishlab
chiqarish fizik hajm indeksi, iste'mol mahsulotlari
ishlab chiqarishning o'sish sur'ati % da**


Hududlarning ishlab chiqarish salohiyatini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar natijasida Norin (2019- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan 138,7 %), Uchqo'rg'on (118,5 %), Mingbuloq (110,9 %), Chust (107,9 %) hamda Pop (104,2 %) tumanlarida sanoat ishlab chiqarish hajmlari fizik hajm indeksining sezilarli darajada oshishiga imkon berdi.



Iste'mol mahsulotlarini ishlab chiqarish Mingbuloq (2019- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan 6,0 marta), Norin (124,0 %) , Chortoq (116,1 %), Uchqo'rg'on (113,8 %), Pop (110,6 %), To'raqo'rg'on (108,1 %), Kosonsoy (106,6 %) tumanlarida sezilarli darajada oshdi.



Viloyat jami sanoat
mahsulotlari hajmida hududlarning ulushi, % da



Viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p ulush Namangan shahri (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmining 38,3 % i) hamda To'raqo'rg'on (14,6 %), Uchqo'rg'on (8,5 %), Namangan (8,2 %) va Uychi (5,9 %) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Eng past ko'rsatkich esa Yangiqo'rg'on (1,6 %) hamda Chortoq (1,7 %) tumanlariga to'g'ri kelmoqda.

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalarini joylashganligi hisobiga To'raqo'rg'on tumani (4 755,9 ming so'm), Namangan shahrida (4 490,6 ming so'm), Uchqo'rg'on (3 645,7 ming so'm), Namangan tumani (3 387,6 ming so'm) va Mingbuloq tumani (3 127,5 ming so'm) tumanlarida o'rtacha viloyat darajasi ko'rsatkichidan (2 617,0 ming so'm) ancha yuqoriligini ko'rsatmoqda.

Bu borada eng past ko'rsatkich Yangiqo'rg'on (573,5 ming so'm), Chortoq (604,9 ming so'm), Chust (1 214,9 ming so'm), Kosonsoy (1 217,0 ming so'm) va Pop (1 543,7 ming so'm) tumanlarida ko'rsatilmoqda.



**Shahar va tumanlar kesimida aholi jon boshiga to'g'ri
keladigan sanoat mahsulotlari
va iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish
(2020- yil yanvar-sentabr oylarida, ming so'm)**

	Sanoat mahsulotlari	Iste'mol mahsulotlari
Viloyat jami	2617,0	1483,7
Namangan sh.	4490,6	2 898,0
<i>tumanlar:</i>		
Mingbuloq	3 127,5	2 374,1
Kosonsoy	1 217,0	1 159,3
Namangan t	3 387,6	2 520,1
Norin	1 547,6	460,5
Pop	1 543,7	931,0
To'raqo'rg'on	4 755,9	1 077,5
Uychi	2 054,0	834,3
Uchqo'rg'on	3 645,7	1 595,3
Chortoq	604,9	520,0
Chust	1 214,9	649,3
Yangiqo'rg'on	573,5	535,9


Viloyat bo'yicha aholi jon boshiga iste'mol tovarlari ishlab chiqarilishi 1 483,7 ming so'm bo'lgani holda, Namangan shahrida 2 898,0 ming so'mni, Namangan tumanida 2 520,1 ming so'mni, Mingbuloq tumanida 2 374,1 ming so'mni, Uchqo'rg'on tumanida 1 595,3 ming so'mni tashkil etdi.

Aholi jon boshiga to'g'ri keluvchi iste'mol tovarlari ishlab chiqarilishi bo'yicha eng past ko'rsatkich esa Norin (460,5 ming so'm), Yangiqo'rg'on (535,9 ming so'm), Chortoq (520,0 ming so'm) va Chust (649,3 ming so'm) tumanlarida ko'rsatilmoqda.



**Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda
kichik biznesning ulushi**
(2020- yil yanvar-sentabr oylarida, % da)

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 3 576,3 mlrd. soʻmlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 48,3 % ni tashkil etdi.




Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Yangiqo'rg'on (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 100,0 %), Chortoq (100,0 %), Kosonsoy (98,4 %), va Chust (67,6 %) tumanlarida kuzatildi.

Viloyat hududlari kesimida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida kichik biznes subyektlarining ulushi tahlili shuni ko'rsatdiki, eng kichkina ulush Mingbuloq (16,0 %), To'raqo'rg'on (18,3 %), Uchqo'rg'on (18,4 %), Norin (29,1 %) tumanlarida sanoat ishlab chiqarish hajmlaridagi kichik biznes subyektlari ulushining kamligini, mazkur hudularda joylashgan yirik sanoat korxonalarining ishlab chiqarish hajmlari yuqori ekanligi bilan izohlash mumkin.



Viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalarini
(2020- yil 1- oktabr holatiga ko'ra)

Bugungi kunda viloyatda 6 284 ta sanoat korxonalarini faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 2 488 tasi (faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 39,6 % i) Namangan shahriga, 495 tasi (7,9 %) Uychi tumaniga, 485 tasi (7,7 %) Namangan tumaniga, 468 tasi (7,4 %) Chust tumaniga, 428 tasi (6,8 %) Kosonsoy tumaniga, 413 tasi (6,6 %) To'raqo'rg'on tumaniga to'g'ri kelmoqda.





2020- yilning yanvar-sentabr oyida viloyatda 1144 ta yangi sanoat korxonalarini tashkil etildi, shulardan 282 tasi (jami yangi tashkil etilgan sanoat korxonalarini hajmidagi ulushi 24,7 %) Namangan shahrida, 125 tasi (10,9 %) Uychi tumanida, 121 tasi (10,6 %) Namangan tumanida, 100 tasi (8,7 %) To'raqo'rg'on tumanida, 87 tasi (7,6 %) Chust tumanida hamda 78 tasi (6,8 %) Kosonsoy tumanida tashkil etildi.



**Shahar va tumanlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan sanoat korxonalari
(2020- yil 1- oktabr holatiga ko'ra)**

Bugungi kunda shahar va tumanlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan eng ko'p sanoat korxonalari joylashgan hududlar 6 taligida Namangan shahar (2 488 ta), Uychi (495 ta), Namangan (485 ta), Chust (468 ta), Kosonsoy (428 ta), To'raqo'rg'on (413 ta) tumanlari qayd etildi.



2020-yilning 1 oktabr holatiga ko'ra viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan eng kam sanoat korxonalari joylashgan hududlar 6 taligida Mingbuloq (173 ta), Chortoq (251 ta), Pop (251 ta), Yangiqo'rg'on (271 ta), Norin (279 ta) hamda Uchqo'rg'on (282 ta) tumanlari qayd etildi.



Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturining amalga oshirilishi

Viloyat sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning yuqori o'sish sur'atlariga erishishda tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish Dasturining amalga oshirilishi ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. Mazkur dastur doirasida kiritilgan 39 ta loyiha bo'yicha 223,7 mlrd. so'mlik mahsulotlar ishlab chiqarildi. Mahalliyashtirish dasturi

doirasida ishlab chiqarilgan mahsulotlardan 1542,6 ming. AQSh dollari miqdorida eksport qilindi.

Mahalliyashtirish dasturi doirasida 2020- yil yanvar-sentabr oylarida 450 ta yangi ish o'rinlari yaratildi o'tgan yilning mos davri bilan taqqoslaganda yangi tashkil etilgan ish o'rinlari soni 5,3 martaga oshdi. Shu bilan birga, 2019- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan mahalliyashtirilgan mahsulotlarni eksport hajmining 3 martaga ortganligi kuzatildi.



Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturining asosiy ko'rsatkichlari

	2019- yil yanvar- sentabr	2020- yil yanvar- sentabr
Loyihalar soni, <i>birlik</i>	20	39
Korxonalar soni, <i>birlik</i>	10	28
Ishlab chiqarish hajmi, <i>mlrd. so'm</i>	149,2	223,7
Eksportga qilingan mahalliyashtirilgan mahsulot hajmi, <i>ming. AQSh dollar</i>	520,0	1542,6
Yaratilgan yangi ish o'rinlari, <i>birlik</i>	85	450

Sanoat statistikasi bo'limi

Tel.: (69) 227-84-80